

Sattarov Kamoliddin Fazliddin o'g'li
University of Business and Science
Nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Саттаров Камолиддин Фазлиддин угли
University of Business and Science
Негосударственное высшее учебное заведение
Sattarov Kamoliddin Fazliddin ugli
University of Business and Science
Non-state higher educational institution

**O'QITISH JARAYONIDA IJODIY VA KREATIV O'QUV
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI
ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ И ТВОРЧЕСКИХ
ЗАДАЧ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ
THE IMPORTANCE OF USING CREATIVE AND CREATIVE TASKS
IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

Rezyume: O'quv topshiriqlari ta'lim jarayonining muhim va ahamiyatli tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Ular o'zlashtirilgan o'quv axborotlarini takrorlash, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faolligini nazorat qilish, muayyan qobiliyatga egaliklarini tashxislash va baholashga yordam beradi. Zamonaviy ta'limda o'quv axborotiga ega bo'lishni ta'minlovchi, o'quv faoliyatini rag'batlantiruvchi hamda o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasini baholovchi topshiriqlar bilan birga ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanish talab qilinadi. Zero, bu turdagi topshiriqlar talabalarni erkin, tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlashga o'rgatish bilan birga ularda o'quv axborotlarini mustaqil o'zlashtirish kompetensiyalarini o'zlashtirishga imkon beradi. Maqolada ijodiy va kreativ topshiriqlarning tarix fanlarini o'qitishdagi didaktik ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qitish, o'qitish jarayoni, o'quv topshiriqlari, o'quv topshiriqlarining xususiyatlari, ijodiy topshiriqlar (ijodiy o'quv topshiriqlari),

kreativ topshiriqlar (kreativ o'quv topshiriqlari), ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarining didaktik imkoniyatlari.

Резюме: Учебные задания являются одной из важных и значимых составляющих образовательного процесса. Они помогают повторить полученную учебную информацию, закрепить полученные знания, контролировать учебную деятельность учащихся, диагностировать и оценивать владение теми или иными способностями. В современном образовании наряду с задачами, обеспечивающими доступ к учебной информации, стимулирующим учебную деятельность, оценивающим уровень усвоения учебного материала, требуется использовать творческие и креативные учебные задания. Ведь такого рода задания учат студентов мыслить свободно, критично, творчески и в то же время обладают компетенциями самостоятельного усвоения учебной информации. В статье говорится о дидактических значениях творческих и креативных учебных заданий в процессе преподавания дисциплины истории.

Ключевые слова: обучение, учебный процесс, учебные задания, характеристика учебных заданий, творческие задания (творческие учебные задания), творческие задания (творческие учебные задания), дидактические возможности творческих и креативных учебных заданий.

Abstract: Educational tasks are one of the important and significant components of the educational process. They help to repeat received educational information, consolidate acquired knowledge, monitor students' educational activities, diagnose and evaluate the possession of certain abilities. In modern education, along with tasks that provide access to educational information, stimulate learning activities, and assess the level of mastery of educational material, it is required to use creative and imaginative learning tasks. After all, this kind of assignments teach students to think freely, critically, creatively and at the same time have the competencies to independently assimilate educational information.

Key words: teaching, educational process, educational tasks, characteristics of educational tasks, creative tasks (creative educational tasks), creative tasks (creative educational tasks), didactic possibilities of creative and creative educational tasks.

Zamonaviy mehnat bozori ishlab chiqish hamda jamiyat iqtisodiyoti uchun so‘nggi bir necha yuz yilliklarda ahamiyatli bo‘lgan deyarli jismoniy, qisman intellektual rivojlanganlikni tavsiflovchi – texnika vositalarini boshqara oladigan ishchi kuchiga nisbatan ehtiyojmand emas. Zero, endilikda inson qo‘li kuchi bilan boshqariladigan texnika vositalari o‘z o‘rnini Smart-texnologiyalariga bo‘shatib bermoqda. Ya’ni, bu kabi texnologiyalarning ish jarayoni inson omili tomonidan nazorat qilib turilmaydi. Tegishli raqamli dasturning o‘zi o‘nlab, hatto yuzlab ishchi kuchi tomonidan bajariladigan jarayonni amalga oshirmoqda.

Shu sababli inson kapitali (human capital), uni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. “Inson kapitali” (“human capital”) tushunchasi nazariy jihatdan “bir vaqtning o‘zida shaxs va jamiyatning bir nechta turli ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega” [14]; “mehnatning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini hamda yaxlit holda korxonada, mintaqada va davlatning iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishni ta’minlovchi, o‘zida tegishli mehnatning sifat va miqdoriy tavsiflarini ifodalovchi bilim, malaka, kompetensiyalar jamlanmasi” [3, – c. 258]; “investisiya kiritish orqali shaxs tomonidan mehnat jarayonida maqsadli foydalangan holda uning ishlab chiqarish va pul mablag‘larini ishlab topish layoqatini namoyon etuvchi salomatligi, bilim, malaka, qobiliyat, motivatsiyalari muayyan zahirasi” [4, – s. 6-7] ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

“Inson kapitali” tushunchasi XVIII asrdayoq shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf Adam Smit tomonidan yaratilgan “Xalqlar ega bo‘lgan boyliklarning xususiyatlari va manbalarining tadqiqi” (“An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations”) asarida ilk marta tilga olingan. Muallif

asosiy iqtisodiy kapital faqat mehnat jihozlari va qurollari, daromadli qurilish va yerdagina emas, balki “jamiyatning barcha aholisi va a’zolari tomonidan o’zlashtirilgan hamda foydali sanalgan qobiliyat, imkoniyatlaridan ham tarkib topadi”. Shaxsning mehnatga layoqati nafaqat unga, shu bilan birga u mansub bo’lgan jamiyatga ham tegishlidir. Adam Smitning fikriga ko’ra, inson kapitalini “ishchining mehnat qilishga sarflanadigan vaqtni qisqartiradigan yoki uni yengillashtiradigan mashinalar va ishlab chiqarish qurollari kabi xarajatni taqozo qiladigan, ammo ushbu xarajatlarning foyda bo’lib kelishini ta’minlaydigan epchilligi va malakalari” [9] sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiq sanaladi.

1928-yildan boshlab, inson kapitaliga bir necha barobar ko’paytiriladigan investisiya sifatida qarala boshlandi. Bu haqida iqtisodchi Artur Sesil Piguning “Davlatning pul mablag’larini tadqiq qilish” nomli asarida qayd etib o’tadi. XX asrning 50-yillaridan keyin inson kapitaliga nisbatan yangicha qarash shakllandi. Ushbu qarash asoschilaridan biri – Nobel mukofotining laureati Geri Bekkerga ko’ra, mutaxassisning yaxshi ish o’rniga egaligi uning o’z inson kapitali investisiya qilgani, ya’ni, bilim olish, malaka orttirish uchun sarflangan summaning “qaytish” darajasi bilan belgilanadi. Yana bir Nobel mukofotining laureati Teodor Shuls “bilim olish va malaka orttirishga sarflangan investisiyani jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omil” [9] deya e’tirof qiladi.

Biroq, zamonaviy til iste’molida bu tushuncha inson kapitalining muhim va qimmatbaho tarkibiy qismi – muammoning yechimini topishda kreativ g’oya, innovasion yondashuv, nostandart qarorni qabul qiladigan yuqori intellektni anglatadi. Inson kapitali o’zida shaxsning quyidagi resurslarini qamrab oladi: bilim, ijodiy va intellektual qobiliyat (imkoniyat), ma’naviy qadriyatlar; shaxsiy sifatlar, ko’nikma va malakalar, mehnatni tashkil qilish madaniyati [13].

Zamonaviy mehnat bozorining mavjud ehtiyoji o'zida ana shunday intellektni namoyon etadigan mutaxassislarga ega bo'lishdir. Shu bois jamiyat uzluksiz ta'lim tizimi oldiga uning barcha bosqichlarida mustaqil, erkin, tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega shaxs – bo'lajak mutaxassisni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda.

Talabalar tomonidan o'quv materialini mazmunini qay darajada o'zlashtirilganligini belgilovchi muhim didaktik omil – o'quv topshirig'i sanaladi. O'quv axborotining mohiyatini bevosita ifodalovchi o'quv topshiriqlari "yoki o'quv materialini mazmunini o'z ichiga oladi yoki kerakli bilimni o'zlashtirish manbasini ko'rsatadi" [10, – s. 114]. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida turli fanlar bo'yicha o'quv topshiriqlaridan har bir darsda muntazam foydalaniladi. Oliy ta'lim muassasalari (OTM)da esa o'quv topshiriqlarining bajarilishi o'quv rejasida ko'rsatilgan tartibda, ya'ni, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yo'lga qo'yiladi. Nazariy mashg'ulot (ma'ruza)lar jarayonida talabalar faol ravishda o'quv topshiriqlarini bajarishga jalb qilinmaydi. Talabalarning diqqatini o'quv jarayoniga tortish, ularda bir qadar faollikni oshirish maqsadida **mini**-topshiriqlar – qisqa muddatda bajarilib, katta hajmli o'quv axborotiga ega bo'lish talab qilinmaydigan topshiriqlardan foydalaniladi.

Mazmuni va hajmiga ko'ra turli shakllarda bo'lgan o'quv topshiriqlari ta'lim jarayonining ajralmas qismi hamda uni faollashtiruvchi muhim vosita sanalib, odatda, talabalar tomonidan pedagogning ko'rsamasiga muvofiq bajariladi [5].

A.I.Uman, M.A.Fedorovanning ko'rsatishlaricha, o'quv topshiriqlari bir necha guruhga ajratiladi. Ular (1-jadval):

1-jadval. O'quv topshiriqlarining tasnifi

№	Tasnifi	Ularning turlari
1	2	3
1.	O'quv axborotiga	1) bevosita o'quv axborotini ifodalovchi

	ega bo‘lishni ta’minlovchi topshiriqlar	topshiriqlari; 2) ta’lim oluvchilarni o‘quv material bilan ishlashga undovchi topshiriqlar; a) nazorat xarakteriga ega topshiriqlar; b) matn bilan ishlashga oid topshiriqlar; v) ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi topshiriqlar
2.	O‘quv faoliyatini rag‘batlantiruvchi topshiriqlar	1) o‘quv topshig‘ini mustaqil bajarish jarayonida bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otuvchi topshiriqlar; 2) o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etishga undovchi topshiriqlar; 3) o‘quv faoliyatini rag‘batlantiruvchi topshiriqlar
3.	O‘quv materialini o‘zlashtirganlik darajasini baholovchi topshiriqlar	1) o‘zlashtirilgan bilimni yodga olishni taqozo qiluvchi topshiriqlar; 2) o‘zlashtirilgan bilimlarni qayta tiklovchi – ko‘p variantli topshiriqlar; 3) ijodiy topshiriqlar

Qanday turda bo‘lishidan qat’iy nazar umumiy holda o‘quv topshiriqlarini bajarishda quyidagi harakatlar bosqichma-bosqich bajariladi: ta’limiy material bilan birlamchi tanishish (o‘rganilayotgan ob’yektning ustidan kuzatish; darslik yoki qo‘shimcha manbalar bilan ishlash; qo‘shimcha manbalardan iqtiboslar olish; jadval yoki grafiklar (turli rasm, tasvir, sxema, xarita, diagramma va boshqa ko‘rinishdagi grafik)ni tuzish); qoida, qonun, qonuniyatlar, tushunchalar shaklida yangi bilimlarni o‘zlashtirish (o‘qilgan badiiy asar bo‘yicha mantiqiy reja tuzish; dalillar va hodisalarni o‘zaro qiyoslash; qo‘yilgan savolga javob topish va hokazolar); ko‘nikma va malakalarni shakllantirish (mashqlarni bajarish; o‘lchash va hisoblash; masalalarni yechish, bayon yoki insho yozish); o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash (takrorlash, muhim qoida, qonun va

qonuniyatlarni yodlash; o‘zlashtirilgan bilimlarni muayyan tizimga solish va boshqalar) [5].

Axborot ko‘lami nihoyatda keng, axborot uzatuvchi manbalar sonining tobora ko‘payib borayotgani o‘quv jarayonida ulardan foydalanish orqali talabalarda o‘quv materialini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu esa yuqorida keltirilgan tasnifni yangi turdagi o‘quv topshiriqlari bilan boyitishni talab qiladi. Ta‘lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda yuqoridagi tasnifni qo‘shimcha axborotlarni o‘zlashtirishga imkon beruvchi, shuningdek, kichik tadqiqotlar hamda kreativ loyihalarga asoslangan topshiriqlar kabi turlar bilan boyitishni lozim deb topdik. Bu turdagi topshiriq o‘z ichiga quyidagi topshiriqlarni oladi (2-jadval):

2-jadval. O‘quv topshiriqlarining tasnifi (qo‘shimcha)

№	Tasnifi	Ularning turlari
1	2	3
1.	Qo‘shimcha axborotlarni o‘zlashtirishni taqozo qiluvchi topshiriqlar	1) turli manbalar (bosma adabiyotlar, Internet saytlari)dan qo‘shimcha axborotni izlashni taqozo qiluvchi topshiriqlar; 2) olingan qo‘shimcha axborotlarni jamlash va tizimlashtirishni taqozo qiluvchi topshiriqlar; 3) tizimlashtirilgan qo‘shimcha axborotlarni taqdim qilishni taqozo etuvchi topshiriqlar
2.	Muammoli vaziyatlarni hal qilishga oid topshiriqlar	1) o‘quv keyslari; 2) ijodiy keyslar; 3) amaliy keyslar
3.	Kreativ loyihalarga	1) yechimni vizual (jadval, rasm, tasvir, sxema, model shakllarida) ifodalashni taqozo qiluvchi topshiriqlar;

	asoslangan topshiriqlar	2) innovasion g'oyalarni ilgari surishni taqozo qiluvchi topshiriqlar; 3) kreativ loyihalarni tayyorlashni taqozo etuvchi topshiriqlar
--	-------------------------	---

M.V.Korotkovaning e'tirofiga ko'ra, ta'limda foydalaniladigan ijodiy topshiriqlar (ijodiy o'quv topshiriqlari) – ta'lim oluvchilarni “hali o'zlashtirilmagan usullar yordamida yangi axborotlarni izlashga undovchi, shu bilan birga yangi o'zlashtirilgan axborot, vizual, matnli va boshqa xarakterdagi ma'lumotlarni mazkur harakatning mahsuli” [6, - s. 10] sifatida taqdim etishga imkon yaratadigan o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Bu turdagi o'quv topshiriqlari maqsadni, mazmunni, faoliyatni va natijani ifodalovchi tarkibiy qismlar [2, - s. 67]dan tarkib topadi.

E.N.Abdulayev tarix fanlarini o'qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalanishning ahamiyatini quyidagilar bilan belgilaydi: birinchidan, ta'lim oluvchilar o'quv kursining asosiy mazmuini yaxshi o'zlashtiradi, ikkinchidan, ularda tarixiy vaziyatlarni tahlil qilish malakasi shakllanadi [1, – s. 15].

OTMda tarix fanlarini o'qitishda nafaqat ijodiy, balki kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlaridan ham foydalanish talabalarda tarixiy jarayonlarning mazmunini tahliliy, tanqidiy o'rganish, ular yuzasidan shaxsiy xulosalarni bayon qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kreativ o'quv topshiriqlari to'g'risida so'z yuritishdan avval “kreativlik” va “kreativ fikrlash” tushunchalarining mohiyatidan xabardor bo'lish talab qilinadi.

D.V.Ushakovning fikriga ko'ra, shaxsda kreativlik qobiliyatining shakllanishi (rivojlanishi)ga katta yoshli kishilar tomonidan ta'qiq va talablarning kam qo'yilishi, shaxsga hissiy jihatdan o'zini namoyon qilishga hamda o'z-o'zini ijobiy baholashga imkon berilishi, ana shunga qaratilgan

harakatning ragʻbatlantirilishi kabi psixologik omillar [12, – s. 264] katta taʼsir koʻrsatadi.

Ayni oʻrinda shuni alohida taʼkidlab oʻtish joiz, ijodiy faoliyat orqali biror bir mahsulot – ijod namunasi, masalan, surat, sheʼr, badiiy asar, askiya, maishiy turmushda ishlatiladigan buyumlar yaratilsa, faoliyatni tashkil qilishga kreativ yondashish asosida maʼlum muammoga birgina emas, bir necha yechim topilib, ularni tahlil qilish orqali eng samarali, amaliy qiymat, taʼlim ahamiyatiga ega boʻlgan yechim tanlanadi. Kreativ oʻquv topshiriqlari talabalardan qandaydir ijod namunasini yaratishni talab qilmaydi.

Taʼlim, xususan, tarix fanini oʻqitish jarayonida foydalaniladigan ijodiy va kreativ oʻquv topshiriqlarini bir-biridan qaysi jihatlarga koʻra farqlash mumkin? Ularni farqlashda, yuqorida aytib oʻtilganidek, talabalarning oʻquv faoliyatini tashkil qilishdan koʻzlangan maqsad aniq belgilab olinishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishish, ularda ilgari surilgan gʻoyalarni tahlil qilish natijasida OTMda tarix fanlarini oʻqitishda kreativ xarakterdagi oʻquv topshiriqlaridan foydalanishda toʻrtta maqsad koʻzlanishiga ishonch hosil qilindi: birinchidan, talabalarni tarixiy jarayonlar mohiyatini tahliliy oʻrganishga yoʻnaltirish; ikkinchidan, ularda tarixiy jarayon, voqea, hodisa yoki tarixiy shaxslarning mavjud vaziyatni rivojlantirishga taʼsiriga oid muammoli vaziyatlar yuzasidan koʻplab oʻziga xos yechimlarni ilgari surish kompetensiyalarini rivojlantirish; uchinchidan, talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlariga egaliklarini tashxislash; toʻrtinchidan, ular tomonidan tegishli mavzuning puxta oʻzlashtirilganlik holatini baholash.

Demak, zamonaviy oliy taʼlim talabalarni tayyor bilimlarni oʻzlashtirishga emas, balki mustaqil ravishda zarur bilimlarni izlashga, toʻplangan oʻquv axborotlari asosida erkin, tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlashga oʻrgatishi zarur. Mazkur talabning ijobiy hal qilinishida taʼlim jarayonida ijodiy va kreativ oʻquv topshiriqlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodiy va kreativ xarakterdagi oʻquv topshiriqlarining

didaktik imkoniyati talabalarda muammo yuzasidan nostandart fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Mashg'ulotlarida ijodiy va kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlarining izchil, uzluksiz, samarali va maqsadli foydalanish natijasida talabalarning o'quv faolligi oshadi; ular tomonidan o'quv axboroti asosida ta'limiy xarakterdagi ijodiy mahsulot (jadval, sxema, model, loyiha, diagramma, gistogramma, anagramma, tasvir va hokazo ko'rinishidagi ijod mahsuli)ning yaratilishiga erishiladi; o'rganilayotgan muammo yuzasidan ko'plab qiziqarli, o'ziga xos (original) yechimlar ilgari suriladi. Shu sababli OTMda tarix fanlarini o'qitishda ham ijodiy va kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlaridan ta'limiy maqsadlarda foydalanishga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Ushbu talabning bajarilishi har bir mavzu bo'yicha ijodiy va kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlari bazasini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Абдулаев Э.Н. Алгоритмизация учебной деятельности при проведении творческих заданий // Ж. Преподавание истории в школе. – М.: 2015. - № 3. – С. 15.

2. Белкин А.С. Основы возрастной педагогики / Учеб.пос. для студ.высш.пед.учеб.завед. – М.: Академия, 2000. – С. 67.

3. Голикова Г.В., Голикова Н.В. Методология исследования стратегии управления организацией на основе воспроизводства инвестиционного капитала и роста индивидуального благосостояния // Ж. Вестник Воронежского государственного технического университета. – Воронеж: 2009. Т. 5. - №12. – С. 257-259.

4. Добрынин А.Н., Дятлов С.А. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования. – СПб.: "Наука", 1999. – С. 6-7.

5. Задания учебные // <http://ponjatija.ru/taxonomy/term/5521>.
6. Короткова М. В. Методика проектирования, разработки и использования творческих заданий по истории // Ж. Преподавание истории в школе. – М.: 2015. - № 3. – С. 10.
7. Креативность // <https://ru.wikipedia.org/wiki/Креативность>.
8. Креатив фикрлаш – бу... // <https://soglom.uz/archives/15316>.
9. Самый ценный экономический ресурс // <https://econs.online/articles/ekonomika/samyu-tsennyu-ekonomicheskiy-resurs>.
10. Уман А.И., Федорова М.А. Учебное задание как средство формирования учебной самостоятельной деятельности // Ж. Проблемы современного образования. – 2017. - № 2. – С. 114.
11. Усмонбоева М., Эҳсонова Ф. Креатив педагогика / Ўқув қўлланма.– Т.: “Наврўз” нашриёти, 2020. – 9-б.
12. Ушаков Д.В. Интеллект: структурнодинамическая теория. – М.: Изд-во “Институт психологии РАН”, 2003. – 264 с.
13. Человеческий капитал: ключ к успешному развитию бизнеса // <https://vc.ru/s/1616248-human-capital/641360-chelovecheskiy-kapital-klyuch-k-uspeshnomu-razvitiyu-biznesa>.
14. Человеческий капитал // https://ru.wikipedia.org/wiki/Человеческий_капитал.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тартибот – Шукр / 5 жилдли. Тўртинчи жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 345-б.
16. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4-6.